

**O‘ZBEKISTONNING CHO‘L HUDUDLARIDAGI AHOLIDA KO‘P
UCHRAYDIGAN HASTALIKLAR**

Daminova Oydin Oston qizi

daminovaoydin2@gmail.com

Anotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekistonning cho‘l hududlarida yashovchi aholini eng ko‘p qiynaydigan holatlar, ularda ko‘p uchraydigan kasalliklar, boshqa hududlarga nisbatan issiq ob-havo aholiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *cho‘l, iqlim, ob-havo, allergiya, bronxial astma, teri kuyishi, qazilma boyliklar, hayvonlar, shifobaxsh o‘simliklar, aholi seyrakligi, harorat, issiq*

KIRISH

Qadim zamonlardan buyon cho‘l hududlarida yashovchi aholi qattiq tabiat sharoitida yashashga moslashgan. Butun dunyoda ham cho‘l hududlarda kuchli issiq va yog‘in juda kam yo‘g‘adi. O‘zbekistonda umumiy maydonga nisbatan cho‘llar egallagan maydon katta hududni egallaydi. Eng katta cho‘llar Qizilqum, Qoraqum va Ustyurt platosidan iborat. Ammo cho‘l hududlarda iqlim sharoiti qiyin bo‘lishi bilan bir qatorda turli foydali qazilmalarga boy hisoblanadi. Masalan O‘zbekiston hududining 70% hududi cho‘ldan iborat bo‘lsa, qazilma boyliklarining katta qismi oltin, gaz, mis, kumush kabi foydali qazilmalar cho‘l hududlarida joylashgan. Cho‘llarning katta qismi Navoiy va Buxora viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasiga to‘g‘ri keladi.

Asosiy qism

Cho‘l hududida yashaydigan aholini qattiq iqlim sharoitidan tashqari salomatlik bilan bog‘liq muammolar ham ko‘p uchraydi. Masalan cho‘ldagi asosiy muommalardan biri bu toza ichimlik suvi tanqisligi. Ayrim joylarda suv tarkibidagi tuz va minerallar miqsdari yuqori bo‘lib, bu inson salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tuzlar inson organizmiga avvalo buyraklarni ko‘proq ishlashga majbur qiladi. Organizmda suvlar ushlanib qolishini natijasida shishlar paydo bo‘lishi mumkin. Bazi hollarda hatto buyrak toshlari paydo bo‘lishigada sabab bo‘lishi ihtimolida yuqori. Uzoq yillar bunday suvnu is‘temol qilish yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshiradi, gepirtoniyaga moyil insonlarda qon bosimini ortishiga sabab bo‘ladi. Toza bo‘lmagan ichimlik suvi ichak infeksiyasiga, chaqaloqlarda qorinda kuchli og‘riq paydo bo‘lishiga va gazlar yig‘ilib qolishiga olib kelishi mumkin. Oshqozonda surunkali yallig‘lanishlarga yoshi kattalarda hazm jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

Issiq iqlim va jazirama yoz oylarida havo haroratining juda yuqori bo‘lishi organizmning suvsizlanishiga, issiq urishiga va mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi. Harorat yuqoriligi ayniqsa yosh bolalar va yoshi kattalarga tez ta‘sir qiladi. Ularda yurak urushi tezlashadi, holsizlanish holatlari bo‘ladi. Buyuk geografik olimlar aytganidek insonning qayerda yashashligi hatto uning fe‘l-atvori shakllanishiga ham katta ta‘sir qiladi. Masalan savuq iqlim hududida yashaydigan aholi ko‘p kitob

20-Iyul, 2026-yil

o'qiydigan,savuqqonroq,urushqoq bo'lsa,issiq o'lkalarda yashaydigan aholi yumshoq,mehribon,ko'proq buysinishga moyilloq bo'ladi.

Ibn Sino aytganidek chang va dard bo'lmaganda edi ming yashagan bo'lardi inson.Cho'ldagi chang va qum bo'ronlari insonlarning nafas yo'llariga juda yomon ta'sir qiladi.Ayniqsa Orolbo'yida bu ko'rsatgich yanada yuqori.Shu sababli Navoiy va Buxora viloyatlarida boshqa viloyatlarga nisbatan allergik ko'rsatgichlar yuqori.Bronxial astma, bronxit ,yutal yoki tamoqda kuchli qichishish sabab bo'ladigan omillar kuchli.Nafas olishni qiyinlashtiradi,o'pkada yallig'lanishni kuchaytirishi mumkin,ayniqsa yosh bolalarda burun bitishi,burunda qichishish, ko'p aksa urush,burundan tinimsiz suv kelishi kabi holatlar so'nggi yillarda aholini bezovta qilmoqda.

Hozirgi zamoniy texnologiyalar eng chekka hududlarga yetib bormoqda.Cho'l hududlari nazardan chetta qolmadi.Muhtaram Prezdimimiz yurtimizni har bir hududida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini keng tadbiiq etmoqda.Cho'l hududlarida yashovchi aholi salomatligini yaxshilash,ularga tabiatdagi noqulayliklarni bartaraf etish uchun turli tuman tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Birinchi navbatda aholi salomatligini yaxshilash uchun toza ichimlik suvi bilan ta'minlashdir.Shu maqsadda yangi suv tarmoqlari qurilmoqda,mavjud quvurlar rekonstruksiya qilinmoqda hamda suvni tozalash inshootlari barpo etilmoqda.

Shuningdek,sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilashga alohida e'tibor qilindi,chunki toza ichimlik bu yaxshi ishlaydigan ichaklar demakdir.

Yana bir muhim omillardan biri tibbiy xizmat ko'rsatish sohasidir zamonaviy oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari faoliyati kengaytirildi. Uzoq va chekka hududlarda yashovchi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish maqsadida mobil tibbiy brigadalar aholini tashkil etilgan.Cho'l hududlarida tez-tez kuzatiladigan chang va qum bo'ronlari nafas olish tizimi kasalliklarini kuchaytiradi.Ayniqsa bunday sharoit bronxial astmasi,surunkali bronxiti va allergik kasalliklari bilan og'ringan insonlar katta xavf keltiradi.

XULOSA

Eng ustuvor yo'nalishlardan biri tibbiyot muossasalarini zamonaviy uskunlar bilan ta'minlash,malakali tibbiyot xodimlarini chekka hududlarga jalb qilish,bu maqsadda chekka hududlarda ishlaydigan vrachlarga yuqori moash to'lanmoqda.Qishloq hududlariga ham dori-darmon vositalarini yetkazib berish yo'lga qo'yildi.Ekologik muommolarni kamaytirish uchun exota daraxtlari ekilmoqda,sho'rga chidamli o'simliklar ekildi.Ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohatlar aholining hayot sifatini oshirish,kasalliklarning oldini olish va umr davomiyligini uzaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komilova.N Buxora viloyati hududining aholi salomatligi bo'yicha tibbiy geografik rayonlashtirish.O'zbekiston Geografiya jamiyati axborati 1999-yil
2. Komilova.N Soliyev A. Aholi salomatligining geografik xususiyatlari va nozogeografik vaziyat

20-Iyul, 2026-yil

3. G‘ulomov P.N Inson va tabiat.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.Davlat ilmiy nashriyoti 2009

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sog‘liqni saqlash tizimi isloh qilish hamda ona va bola salomatligini mustahkamlashga oid farmon va qororlari